

# YONG‘OQ O‘SIMLIGIDA UCHROVCHI NEMATODALARNING O‘RGANILISHIGA DOIR TAHLIL

**Bobokeldiyeva Shaxnoza Abdusamad qizi, Aramova Gulhayo Baxtiyorovna**

Termiz davlat universiteti, o‘qituvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yong‘oq o‘simligida uchraydigan nematodalarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy asoslangan manbalar tahlili, xususan, xorijiy, MDH davlatlari va O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning qisqacha tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Yong‘oq o‘simligi, *Panagrolaimus rigidus*, *Cuticularia oxucece*, *Rhabditis filiformis*, *Acrobeloides nanus*, *Aphelenchoides limberi*, *A.blastophthorus*, *A.composticola*, *Paraphelenchus pseudopariyetinus*, *Filenchus filiformis*, *Helicotylenchus dihystra*, *Heterodera sp*

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ научно обоснованных источников по изучению нематод, встречающихся в растениях грецкого ореха, в частности, краткий анализ научных исследований, проводимых в зарубежных странах, странах СНГ и Узбекистане.

**Ключевые слова.** Ореховое растение, *Panagrolaimus rigidus*, *Cuticularia oxucece*, *Rhabditis filiformis*, *Acrobeloides nanus*, *Aphelenchoides limberi*, *A.blastophthorus*, *A.composticola*, *Paraphelenchus pseudopariyetinus*, *Filenchus filiformis*, *Helicotylenchus dihystra*, *Heterodera sp*

**Annotation:** This article presents an analysis of scientifically based sources on the study of nematodes encountered in the walnut plant, in particular, a brief analysis of scientific research conducted in foreign, CIS countries and Uzbekistan.

**Keywords.** nut plant, *Panagrolaimus rigidus*, *Cuticularia oxucece*, *Rhabditis filiformis*, *Acrobeloides nanus*, *Aphelenchoides limberi*,

*A.blastophthorus, A.composticola, Paraphelenchus pseudopariyetinus, Filenchus filiformis, Helicotylenchus dihystra, Heterodera sp*

Dunyo hamjamiyatida urbanizatsiya jadalligi, demografik o'sish darajasining yuqoriligi insoniyat olamida vitamanga boy, ozuqabop va eksprtob mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Bu jarayonlarning normalligini ta'minlash uchun oziq-ovqat mahsulotlarining mahsuldor navlarini yaratish yoki mavjudlarining hosildorligini oshirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Surhondaryoning quruq mevali o'simliklari orasida yong'oq ozuqabopligi, tarkibida inson salomatligi uchun muhim bo'lgan vitaminlarning bo'lishi hamda yuqori eksprtob o'simliklar qatoriga kirganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda biz o'z tadqiqotlarimizni Surxondaryo viloyati yong'oq o'simligida uchrovchi fitogelmintlarni asosiy obyekt sifatida o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida parazit nematodalarning xorijiy, MDH, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi sharoitida o'rganilganlik darajasini aniqlash maqsadida adabiyotlar tahlili bilan tanishib, ushbu o'simlikning bir qator parazit nematodalar bilan zararlanishini tahlillar davomida o'rgandik.

O'zbekistonda kuruq mevali o'simliklar jumladan, yong'oq o'simligi fitonematodalarini o'rganishda bir qancha olimlar o'z xissasini qo'shishgan. Jumladan, Sh.Xurramov, B.Saidov, P.Xaydarovalar 1986-1989 yillarda Surxondaryo viloyatining 7 ta tumaniga qarashli 13 ta jamoa xo'jaliklarida grek yong'og'ining nematologik holati o'rganilgan va 95 tur nematoda turi aniqlangan. Aniqlanishicha, ildiz va ildiz atrofidagi tuproqlarda ko'pincha *Panagrolaimus rigidus, Cuticularia oxycece, Rhabditis filiformis, Acrobeloides nanus, Aphelenchoides limberi, A.blastophthorus, A.composticola, Paraphelenchus pseudopariyetinus, Filenchus filiformis, Helicotylenchus dihystra, Heterodera sp.*kabi turlar uchrashi aniqlangan [1].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida V.D.Matshanov tomonidan Qirg'izistonning yong'oc mevali o'simliklarda uchrovchi *Paratylenchus nanus* haqida ba'zi malumotlar keltirilgan. Unga ko'ra *Paratylenchus nanus* barcha nematodlarning 4 % ni tashkil qilishi aniqlangan [2].

Rossiya fitogelmintolog olimlari tomonidan yong'oc agrotsenozlari tahlil qilinganda o'simliklarning ildiz va ildiz oldi tuproqlarida *Meloidogyne* avlodiga mansub turlar uchraganligi, hamda ushbu turlar o'simlar ildizi hamda o'tkazuvchi sistemasida yirik shishlarni hosil qilib, gigant hujayralarning hosil bo'lishiga, natijada o'simliklarning erta o'sishdan qolishi, hosildorlikning keskin kamayib ketishiga sabab bo'lishi qayd etildi. Bundan tashqari *Xiphinema* va *Longidorus* avlodiga mansub turlar ham o'simlik ildizida yirik shishlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lishi aniqlangan [3].

2011-2012 yillarda Eronning g'arbiy qismi hisoblangan Qurdiston hududi yong'oc plantatsiyalarida o'simlikning ildiz va ildiz oldi tuprog'idan 54 namuna olingan hamda ular ustida tajriba o'tkazilgan. Natijada ushbu plantatsiyada 21 turga mansub parazit nematoda turlari qayd etilgan. Aniqlangan turlar orasida: *Cacopaurus pestis*, *Mesocriconema xenoplax*, *Pratylenchus vulnus* va *Meloidogyne incognita* katta zarar yetkazishi mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, tanasi spiralsimon (*Helicotylenchus crassatus*, *H. digonicus*, *H. pseudorobustus* va *H. vulgaris*), halqali (*Mesocriconema antipolitanum* va *M. xenoplax*) va ildiz chirituvchi nematodalar (*Pratylenchus neglectus*, *P. thornei*, *P. vulnus* va *P. delattrei*) eng ko'p uchraganligi, *Pratylenchus delattrei*, *Trophurus lomus*, *Paratylenchus similis*, *Geocenamus stegus*, *Helicotylenchus crassatus*, *Scutellonema brachyurus* va *Meloidogyne incognita* kabi turlar esa Eron yong'oc plantatsiyasi uchun yangi tur sifatida uchrashi qayd etilgan [4].

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki O'zbekiston, xususan Surxondaryo viloyati sharoitida quruq mevali o'simliklari orasida yong'oc o'simligida uchrovchi fitonematodalar populyatsiyasi yetarli o'rganilmagan bo'lib, shu bilan birga parazit fitonematodalar keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlar natijasida yong'oc yer maydonlarining intensiv qisqarib ketishi va

hosildorlikning keskin kamayib borishi katta makroiqtisodiy xavfni yuzaga keltiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Саидов Б, Хайдарова П, Хуррамов Ш // К вопросу изучения фауны нематод грецкого ореха в Сурхандарьинской области Узбекистана // X1 Всес конф. "Нематод.болезни раст", - Киненов , - 1991, - С. 21-23.

2. Матшанов В.Д. Некторье сведение о *Паратйленчус нанус* из орехоплодовых лесов Киргизстана // X1 Всес конф «Нематод, болезни раст» // - Кишинев, - 1991, -С.17-18.

3. Анучин Н.А., Атрохин В.Г., Виноградов В.Н. и др. Лесная энциклопедия: В 2-х т., т.2 / Гл.ред. Воробьев Г.И.; Ред.кол.: - М.: Сов. энциклопедия, 1986.-631 с.

4. Бахмани, Ж., Кхозеини, Ф., Барооти, С., Резае, С. анд Гхадери, Р. Плант-параситис нематодес ассосиатед витх валнут ин тхе Санандеж Регион оф Вест Иран // *Ж. Пл. Прот. Рес.* - 2013. Вол. 53, - №. – Р. 404-408.

5. Amonova G. R., Rashidov N. E. Useful Properties of Medicinal Chamomile (*Matricaria Recutita*) //European journal of innovation in nonformal education. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 130-132.

6. Bekmurodov A. S. et al. Faunistic Analysis and Distribution of Phytonematodes of Some Fruit Trees of The Southern Regions of Uzbekistan //Journal of Advanced Zoology. – 2023. – Т. 44.

7. Рахматуллаев Б. А., Арамова Г. Б. Қирғоқ бўйи ўсимликларининг паразит нематодалар би-лан зарарланиши ва профилактикаси.« //Жанубий оролбўйи табиий ресурсларидан оқилона фойдаланиш» х республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – 2022. – Т. 124.

8. Наджиев Ж. Н., Арамова Г. Б. Ҳайдаров Б. Помидорнинг бўртма нематодасига чидамли линиялари танлов синови. – 2018.

9. Вахриддиновна R. U., Musurmonovich F. S. Soybean-as a source of valuable food //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 165-166.